Jahon amaliyotida dasturiy budjetlashtirish (Program-Based Budgeting, PBB) davlat xarajatlarining natijadorligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmi sifatida qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuv budjet mablag'larini suv siyosatida belgilangan aniq maqsadlar, xususan suv yo'qotishlarini kamaytirish, suv ta'minoti barqarorligini ta'minlash, xizmatlar sifatiga erishish hamda ekologik xavflarni pasaytirish bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. O'zbekiston uchun mazkur masala milliy strategik hujjatlarda, jumladan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida (III-bob, 3.1-bandi) suv resurslaridan oqilona foydalanish mamlakat iqtisodiy xavfsizligining ustuvor yo'nalishi sifatida mustahkamlab qo'yilgan. Strategiyada belgilangan suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish hamda sohaga "yashil energetika" va raqamli yechimlarni tatbiq etish kabi muhim vazifalar budjet mablag'larini ajratishda natijaga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llash va moliyaviy resurslarni aniq maqsadli indikatorlarga muvofiqlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi suv xo'jaligi sohasida dasturiy budjetlashtirishni joriy qilish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasida shakllangan amaliy yondashuvlarni tahlil qilish hamda ular asosida O'zbekiston suv xo'jaligi budjet dasturlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlar suv xo'jaligi sohasida budjet mablag'larining ijrosi ko'plab davlatlarda past darajada qolayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, Jahon bankining 2024-yilda e'lon qilingan "Kelajakda suv xavfsizligini ta'minlashni moliyalashtirish: global davlat xarajatlarini baholash" hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda suv sektori uchun ajratilgan budjet mablag'larining o'rtacha yillik ijro ko'rsatkichi 72 foizni tashkil qiladi. Bu har yili ajratilayotgan mablag'larning qariyb uchdan biri yoki o'zlashtirilmagan qolayotganini, yoki rejalashtirilgan natijalarga olib kelmayotganini anglatadi. Hisobotda qayd etilishicha, ushbu holatning asosiy sabablari loyiha boshqaruvi tizimining zaifligi, byurokratik cheklovlar hamda budjet rejalashtirishda aniq natijalarga yo'naltirilgan yondashuv yetarlicha joriy qilinmaganligi bilan bog'liq.

Jahon banki ekspertlarining baholashicha, faqat budjet ijrosi samaradorligini oshirish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslar jalb etmagan holda ham suv ta'minoti sifatini 20–30 foizga yaxshilash imkoniyati mavjud. Biroq xavfsiz ichimlik suvi va sanitariyaga oid Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun global moliyalashtirish taqchilligi yiliga 131–141 mlrd AQSH dollarini tashkil etmoqda, rivojlanayotgan mamlakatlarning suv sektoriga sarflaydigan jami xarajatlari esa YAIMning taxminan 0,5 foiziga tengdir (Funding a Water-Secure Future: An Assessment of Global Public Spending[1]). Global resurs taqchilligi sharoitida ajratilgan mablag'lardan samarali foydalana olmayotganlik ushbu sohada dasturiy–natijaga yo'naltirilgan yondashuvni joriy qilish muhimligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Dasturiy budjetlashtirishning amaliy samarasi ko'p jihatdan samaradorlik ko'rsatkichlari (Key Performance Indicators, KPI) tizimini to'g'ri shakllantirishga bog'liq. Ilmiy va amaliy adabiyotlarda Xalqaro Suv Assotsiatsiyasi (IWA) tomonidan taklif etilgan samaradorlik ko'rsatkichlari metodologiyasi alohida o'rin tutadi. Jumladan, H. Alegre va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan "Suv ta'minoti xizmatlari uchun samaradorlik ko'rsatkichlari" qo'llanmasida suv xo'jaligi tashkilotlari faoliyatini baholash bo'yicha standart ko'rsatkichlar tizimi bayon qilingan. Ushbu IWA yondashuvi suv resurslari, operatsion faoliyat, xizmatlar sifati, moliyaviy ko'rsatkichlar va institutsional barqarorlik kabi yo'nalishlarni qamrab olgan KPI guruhlarini taklif qiladi (Performance Indicators for Water Supply Services[2]). Shunga ko'ra, suv xo'jaligida KPilar quyidagi to'rtta asosiy guruhga ajratiladi:

- Texnik ko'rsatkichlar: suv yo'qotishlari darajasi (daromad keltirmaydigan suv miqdori, NRW), gidroinshootlarning ishlash holati va tarmoqlar samaradorligi;
- Iqtisodiy ko'rsatkichlar: xarajatlarni qoplash darajasi (cost recovery), operatsion samaradorlik va moliyaviy barqarorlik;
- Ijtimoiy-ekologik ko'rsatkichlar: aholini ichimlik suvi bilan qamrab olish darajasi, suv sifati va ekologik me'yorlarga muvofiqlik;



– Institutsional ko'rsatkichlar: boshqaruv tizimining shaffofligi, raqamlashtirish darajasi va jamoatchilik hisobdorligi mexanizmlari.

Shuningdek, Jahon banki boshqaradigan IBNET (International Benchmarking Network) tizimi suv ta'minoti va oqava suv xizmatlari bo'yicha dunyodagi eng yirik qiyosiy tahlil ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. IBNET doirasida tuzilgan ko'rsatkichlar mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi ma'lumotlarni taqqoslash imkonini beradi. Bu esa ularni dasturiy budjetlashtirish va xalqaro solishtirishlar uchun alohida ahamiyatli qiladi. Ayniqsa, Jahon banki tomonidan asosiy texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri sifatida qaraladigan daromad keltirmaydigan suv (Non-Revenue Water, NRW) ko'rsatkichi alohida e'tiborga loyiq. Suv yo'qotishlarining yuqori darajasi nafaqat tarmoqlarning texnik eskirishini, balki boshqaruvning samarasizligini ham ko'rsatadi, bu esa budjet dasturlarini shakllantirishda ushbu ko'rsatkichni muhim ahamiyatga ega qiladi [3].

O'zbekistonning strategik hujjatlarida suv resurslarini samarali boshqarish va moliyaviy natijadorlikni oshirish masalasi bevosita aks etgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "2020–2030-yillarda suv xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasi"da natijaga yo'naltirilgan boshqaruvga o'tish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, xarajatlarni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish choralariga urg'u berilgan [4]. Ushbu ustuvor yo'nalishlar xalqaro amaliyotda tavsiya etilayotgan dasturiy budjetlashtirish tamoyillari va KPI tizimini shakllantirish bo'yicha yondashuvlarga to'liq muvofiq keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida suv xo'jaligida dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy qilingan xorijiy davlatlarning budjet hujjatlari, sohaviy dasturlari va natijadorlik hisobotlari o'rganilgan. Xususan, Fransiya va Avstraliyada PBBning institutsional arxitekturasi, Janubiy Afrika Respublikasida natijaga asoslangan monitoring hamda Qozog'istonda sohaviy budjet dasturlarini shakllantirish amaliyoti tahlil qilingan. Bundan tashqari, Jahon banki, IWA (Xalqaro suv assotsiatsiyasi), Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya tashkilotlarining rasmiy hisobotlari va metodologik qo'llanmalari asosiy manba sifatida qo'llanildi. O'zbekistonda suv xo'jaligini rivojlantirishga oid amaldagi budjet dasturlari tahlil qilinib, xorijiy tajriba bilan qiyosiy baholandi. Tadqiqot natijalari asosida sohada dasturiy budjetlashtirishni takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Suv xo'jaligi sohasi katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni talab etuvchi, uzoq muddatli infratuzilma loyihalariga bog'liq hamda tabiiy resurslar cheklangan sharoitda faoliyat yuritadi. Ushbu xususiyatlar sohada budjet mablag'larini rejalashtirish va taqsimlashda samaradorlikka qaratilgan yondashuvlarni qo'llash zaruratini keltirib chiqaradi. Dasturiy budjetlashtirish suv xo'jaligi sohasida budjet mablag'larini aniq maqsadlar, o'lchanadigan natijalar va samaradorlik ko'rsatkichlari bilan bog'lashga qaratilgan moliyaviy boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Bunda budjet dasturlarini rejalashtirish va baholash, qoida tariqasida, o'zaro bog'liq bo'lgan uchta asosiy elementdan iborat mantiqiy model asosida amalga oshiriladi. Jumladan,

1. Kirish resurslari (inputs) – budjet dasturini amalga oshirish uchun ajratiladigan moliyaviy, insoniy, moddiy-texnika va institutsional resurslar majmui.

2. Natijalar (outputs va outcomes) – budjet mablag'lari hisobiga bajarilgan tadbirlar va ularning yakuniy ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. Bunday bevosita natijalar (outputs) sifatida, masalan, rekonstruksiya qilingan kanallar uzunligi, qurilgan gidroinshootlar soni yoki o'rnatilgan suv o'lchagichlar hajmini keltirish mumkin. Yakuniy natijalar (outcomes) esa suv yo'qotishlarining kamayishi, suv ta'minoti barqarorligi ortishi, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining oshishi kabi sifat o'zgarishlarini ifodalaydi.

3. Samaradorlik (efficiency) – belgilangan natijalarga erishish uchun sarflangan resurslar hajmining optimal darajasi va ularning qaytim (foйда) ko'rsatkichi.

Mazkur mantiqiy model budjet dasturlarining maqsadlari, indikatorlari va moliyaviy parametrlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga xizmat qilib, davlat xarajatlarini natijalar nuqtayi nazaridan baholash uchun metodologik asos yaratadi.

Ushbu metodologik yondashuvga tayangan holda, tadqiqot doirasida dasturiy budjetlashtirish amaliyoti turli institutsional modellarni aks ettiruvchi mamlakatlar tajribasi asosida qiyosiy tahlil qilindi.

Fransiyada davlat moliyasini boshqarish tizimida dasturiy budjetlashtirish 2001-yilda qabul qilingan Davlat moliyasi to'g'risidagi organik qonun (LOLF) asosida joriy etilgan bo'lib, suv xo'jaligi sohasi ushbu tizim to'liq qamrab olgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Suv resurslarini boshqarish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan xarajatlar Ekologiya, rivojlanish va barqaror mobillik missiyasi (Mission Écologie, Développement et Mobilités

¹ <https://lex.uz/docs/-4892953>



Durables) tarkibidagi 113- “Tabiiy landshaftlar, suv resurslari va biologik xilma-xillik” dasturiga (Programme 113: Paysages, eau et biodiversité) integratsiyalangan. Ushbu keng qamrovli ekologiya dasturi suv resurslari, ekotizimlar va qirg'oqbo'yi hududlar siyosatini o'z ichiga oladi [5].

Fransiya tajribasining o'ziga xos jihati shundaki, budget dasturlarida infratuzilmaviy tadbirlardan ko'ra ekologik va ijtimoiy yakuniy natijalar ustuvor sanaladi. Dastur maqsadlari suv havzalarining ekologik holatini yaxshilash, ifloslanish darajasini kamaytirish va suv resurslaridan barqaror foydalanish kabi outcome ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi. Bevosita qurilish yoki rekonstruksiya ishlari esa ushbu natijalarga erishish vositasi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, Fransiya da budget ijrosi natijalari yil yakunida maxsus “Rapport Annuel de Performances” (yillik natijadorlik hisobotlari) orqali baholanadi. Ushbu hisobotda rejalashtirilgan va amalda erishilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilinib, keyingi budget siklida dastur parametrlarini tuzatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday tahliliy mexanizm PBBni haqiqiy boshqaruv vositasiga aylantirishni ta'minlaydi. Xususan, 113-dastur bo'yicha 2023-yil yakunlariga bag'ishlangan hisobotda suv xo'jaligi siyosati suv resurslarini muhofaza qilish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan bo'lib, u suv agentliklari hamda sohaviy vakolatli organlar orqali amalga oshirilayotgani qayd etilgan. Shu bilan birga, suv ekotizimlarini saqlash borasida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa-da, suv xo'jaligi sohasida belgilangan maqsadlarga to'liq erishilmagani ta'kidlanadi. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi va iqlim xavf-xatarlarining ortib borishi mazkur sohadagi asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan [6].

Avstraliya suv resurslari cheklangan va iqlim xatarlari yuqori bo'lgan davlat sifatida dasturiy budgetlashtirishni suv xavfsizligini ta'minlash siyosati bilan uzviy bog'lagan. Masalan, suv xo'jaligi sohasidagi budget dasturlari Iqlim o'zgarishi, energetika, atrof-muhit va suv xo'jaligi vazirligining (DCCEEW) 2025–2026-yillarga mo'ljallangan Portfolio Budget Statements hujjatida suv sohasiga qaratilgan 4-strategik natija (Outcome 4) sifatida belgilangan: “Avstraliya daryolari va botqoqlik hududlari holatini yaxshilash, shuningdek, suv resurslaridan barqaror, samarali va mahsuldor foydalanishni ta'minlash”. Outcome 4 ga erishish uchun tegishli 4.1- “Avstraliya suv resurslarini muhofaza qilish, tiklash va barqaror boshqarish” dasturi amalga oshiriladi. Tarkibiy jihatdan, 4.1-federal dasturi qator yirik loyihalarni moliyalashtirishni qamrab olgan. Ular qatoriga qishloq xo'jaligida suvdan barqaror foydalanish va suv infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari, atrof-muhit ehtiyojlari uchun maxsus hisob (Environmental Water Special Account), Murrey–Darling havzasi rejasini (Murray–Darling Basin) amalga oshirish chora-tadbirlari hamda suvdan samarali foydalanishni rag'batlantirish dasturlari kiradi [7].

Avstraliya tajribasida dasturiy budgetlashtirish suv ta'minoti barqarorligi, iqlim o'zgarishi oqibatlari va favqulodda holatlar bilan bog'liq xatarlarni oldindan baholash hamda ularni kamaytirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvi sifatida qo'llaniladi. Bunda budget dasturlarini rejalashtirish jarayonida mavjud gidrologik va iqlimiy xatarlar inobatga olinib, moliyaviy resurslar faqat amaldagi infratuzilmani saqlashga emas, balki suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, suv manbalarini diversifikatsiya qilish va iqlim o'zgarishiga moslashish choralariga yo'naltiriladi. Shu orqali dasturiy budgetlashtirish oqibatlarni bartaraf etishga qaratilgan xarajatlardan ko'ra, oldini olishga qaratilgan (preventiv) boshqaruv mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi hamda suv sohasiga yo'naltirilgan budget xarajatlarining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Janubiy Afrika Respublikasida (JAR) dasturiy budgetlashtirish tizimi davlatning O'rta muddatli xarajatlar doirasi (Medium Term Expenditure Framework, MTEF) bilan uzviy bog'langan holda joriy qilingan bo'lib, u yillik rejalashtirish hamda natijadorlikni baholashga qaratilgan institutsional hujjatlar orqali amalga oshiriladi. Xususan, Suv va sanitariya vazirligining Yillik samaradorlik rejasini (Annual Performance Plan) doirasida har bir budget dasturi va quyi dasturlar kesimida natija va chiqish ko'rsatkichlari (outcomes va outputs), shuningdek yillik va choraklik maqsadli indikatorlar (targets) belgilab berilgan. Ushbu maqsadli ko'rsatkichlar MTEF davri uchun tasdiqlangan budget parametrlari bilan muvofiqlashtiriladi, ya'ni natijadorlik maqsadlari moliyaviy resurslar bilan tizimli ravishda bog'lanadi [8].

JAR modeli doirasida shakllangan natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tizimining asosiy xususiyati hisobdorlik va monitoring mexanizmlarining mustahkam institutsional va normativ asosga ega ekanligi bilan izohlanadi. Samaradorlikka oid ma'lumotlar (performance information) bo'yicha yagona milliy standartlarning joriy etilishi natijadorlik indikatorlarini bir xil metodologiya asosida shakllantirish, taqqoslash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, parlament nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik uchun shaffof, verifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan (audit-ready) va ochiq axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, mamlakatda suv ta'minoti va sanitariya xizmatlari sifatini baholashda sohaviy regulyator instrumentlari — Blue Drop, Green Drop va No Drop tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu “rag'batga asoslangan tartibga solish” (incentive-based regulation) mexanizmlari xizmat ko'rsatish sifatini aniq standartlar va komplaens talablari bilan bog'lab, baholash natijalarini ochiq e'lon qilish orqali xizmat ko'rsatuvchi operatorlarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada, KPllar faqat hisobot uchun mo'ljallangan statistik ko'rsatkichlar emas, balki strategik va operatsion boshqaruv qarorlarini yo'naltiruvchi samarali instrument sifatida namoyon bo'ladi.



Qozog'iston Respublikasida so'nggi yillarda suv resurslarini boshqarish tizimida islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur jarayon strategik rejalashtirishni kuchaytirish, idoralararo muvofiqlashtirishni yaxshilash hamda suv resurslarini hisobga olish va monitoring qilish tizimini raqamlashtirishga qaratilgan institutsional chora-tadbirlar bilan birga amalga oshirilmoqda. Xususan, 2024–2030-yillar uchun suv resurslarini boshqarish tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi va 2024–2028-yillarga mo'ljallangan suv tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha Kompleks reja qabul qilinib, ular doirasida suv sohasiga oid budget dasturlarining strategik maqsadlari belgilangan [10].

Shunga muvofiq, Qozog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi va irrigatsiya vazirligining “2023–2027-yillarga mo'ljallangan rivojlanish rejasi”da suv resurslarini samarali boshqarish hamda suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish kabi ikkita strategik yo'nalish belgilangan. Budget mablag'lari ekologiya va tabiiy resurslar sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo'yicha xizmatlar, suv resurslarini samarali boshqarish hamda suv xo'jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, bilim va ilmiy tadqiqotlardan foydalanish imkoniyatini oshirish kabi mazkur strategik yo'nalishlarga qaratilgan budget dasturlari bo'yicha taqsimlangan [9].

Shu bilan birga, Qozog'iston tajribasi transformatsiya jarayonidagi davlatlarga xos bo'lgan qator tizimli muammolarni namoyon etadi. Jumladan, suv xo'jaligi sohasidagi budget dasturlarida infratuzilmaviy tadbirlar va jismoniy ko'rsatkichlar (qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan obyektlar soni, kanallar uzunligi) ustuvor bo'lib, yakuniy natijalar (suv ta'minoti barqarorligi, suv yo'qotishlarini kamaytirish, xizmat sifati) hamda samaradorlik indikatorlarining qo'llanilishi hali cheklangan holatda qolmoqda.

Monitoring va baholash tizimi ham asosan loyihalar ijrosini hisobga olishga yo'naltirilgan bo'lib, budget mablag'larining natijadorligi va qaytimiga tizimli baho berish mexanizmi to'liq shakllanmagan. Biroq, so'nggi yillarda mamlakatda budget dasturlarini natijalarga yo'naltirish, KPI tizimini takomillashtirish va suv sohasida raqamli hisobga olish vositalarini joriy qilish bo'yicha institutsional chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu tajriba O'zbekiston uchun ahamiyatli bo'lib, dasturiy budgetlashtirishni joriy qilishda infratuzilmaviy vazifalarni saqlab qolgan holda, natija va samaradorlik indikatorlarini bosqichma-bosqich kuchaytirish, shuningdek monitoring tizimini institutsional jihatdan mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Turli mamlakatlarda suv xo'jaligida dasturiy budgetlashtirish yondashuvlarini qiyosiy tahlili²

T/r	Mezonlar/Mamlakatlar	Fransiya	Avstraliya	JAR	Qozog'iston
1	Institutsional asos	LOLF (2001), missiya–dastur ierarxiyasi	PBS, Outcome–Programme budget modeli	MTEF, Annual Performance Plan	Strategik hujjatlar va davlat dasturlari tizimi
2	Budget dasturlarining tuzilishi	Ekologiya missiyasi doirasida Programme 113	DCCEEW vazirligi Outcome 4 → Programme 4.1	Programme / Sub-programme kesimida	Dastur-qo'yi dastur-natija ko'rsatkichi
3	Natijalarga yo'naltirilgan yondashuv	Ekologik outcome ustuvor, infratuzilma — maqsadga erishish uchun vosita	Xatarlarga asoslangan, preventiv yondashuv	Xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va ijtimoiy natijalarga qaratilgan	Outcome ustuvor, infratuzilma davlat dasturlari asosida moliyalashtiriladi
4	KPI tizimi	Ekologik holat, ifloslanish, barqaror foydalanish	Barqarorlik, tayyorgarlik, samaradorlik	Blue/Green/No Drop baholash standartlari	Output ustuvor, outcome cheklangan
5	Monitoring va hisobdorlik	RAP orqali yillik baholash	PBS va yillik hisobotlar	Parlament va jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlar taqdim etiladi	Davlat organlari monitoringi; ochiq ma'lumotlar bazasi mavjud
6	PBBning o'ziga xos jihati	Ekologik “outcome”ga yo'naltirilganlik	Xatarlarni oldindan kamaytirish	Ijtimoiy adolat va xizmat sifati	O'tish (transitional) modeli

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, suv sohasidagi institutsional tuzilmalar va boshqaruv modellaridagi farqlarga qaramay, dasturiy budgetlashtirishning samarali amal qilayotgan modellari bir qator umumiy boshqaruv mexanizmlariga tayanadi. Avvalo, mazkur davlatlarda budget rejalashtirish va ijrosini baholash jarayoni budget dasturlarini aniq va o'lganidan yakuniy natijalarga (outcomes) yo'naltirish tamoyili asosida tashkil etilgan.

2 Mualliflar tomonidan xalqaro manbalar asosida tuzilgan.



Bu esa davlat xarajatlarini faqat bajarilgan tadbirlar hajmi orqali emas, balki ularning suv ta'minoti barqarorligi, xizmat sifati va ekologik ta'siri nuqtayi nazaridan baholash imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, suv xo'jaligi sohasida natijadorlikni baholashda cheklangan, biroq mazmunan muhim KPI majmuiga tayanish ustuvor ekanini ko'rish mumkin. Bunday ko'rsatkichlar, odatda, suv ta'minoti sifati va qamrovi, suv yo'qotishlarining darajasi, xizmatlar barqarorligi hamda favqulodda holatlarga tayyorgarlik kabi parametrlarni qamrab oladi. Ushbu yondashuv indikatorlarni ortiqcha ko'paytirishdan qochib, ularni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda amaliy ahamiyatga ega vositaga aylantirishga xizmat qiladi.

Muhim jihatlardan yanabiri—monitoring va hisobot jarayonlarining institutsional jihatdan rasmiylashtirilganligi hisoblanadi. Qiyosiy tahlil qilingan davlatlarda rejalashtirilgan maqsadlar va erishilgan natijalarni muntazam solishtirish, yillik natijadorlik hisobotlarini tayyorlash va ularni parlament hamda jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Bu esa budjet dasturlarining ijrosi ustidan doimiy nazoratni ta'minlab, hisobdorlikni kuchaytiradi.

Nihoyat, qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, dasturiy budjetlashtirish faqat rejalashtirish va hisobot bilan cheklanib qolmasdan, baholash natijalari asosida boshqaruv qarorlarini qayta ko'rib chiqish va resurslar taqsimotini tuzatish mexanizmini ham o'z ichiga oladi. Aynan shu omil PBBni formal budjetlashtirish usuli emas, balki natijaga yo'naltirilgan boshqaruv vositasiga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Milliy normativ-huquqiy baza tahlili O'zbekistonda suv xo'jaligi sohasida dasturiy budjetlashtirishni joriy etish uchun zarur institutsional va huquqiy sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yil 4-yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 4-son³ Qarori bilan tasdiqlangan "Budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoring qilish va samaradorligini baholash tartibi to'g'risida"gi Nizom, shuningdek suv xo'jaligi sohasida qabul qilingan strategik qarorlar natijaga yo'naltirilgan moliyaviy boshqaruvga o'tish uchun huquqiy asos yaratadi [4, 11].

Xorijiy ilg'or tajriba bilan uyg'unlashgan holda, O'zbekistonda suv xo'jaligi sohasidagi budjet dasturlarini yanada takomillashtirish yo'nalishida muhim institutsional imkoniyatlar mavjud. Xususan, dasturiy budjetlashtirish doirasida maqsad va vazifalarni yanada aniqlashtirish, ularni aniq va o'lchanadigan yakuniy natijalar bilan bevosita bog'lash suv xo'jaligi siyosatining natijadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv budjet dasturlarining strategik yo'naltirilganligini kuchaytirib, ularning amaliy ta'sirini yanada oshirish imkonini beradi.

Kelgusida natijadorlik ko'rsatkichlari tizimini rivojlantirish orqali faqat bajarilgan ishlar hajmini aks ettiruvchi output indikatorlar bilan cheklanib qolmasdan, suv ta'minoti barqarorligi, xizmatlar sifati va suv yo'qotishlarini qisqartirish kabi uzoq muddatli va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega outcome ko'rsatkichlarini tizimli ravishda joriy etish imkoniyati mavjud. Bu esa davlat budjetining ijrosini nafaqat infratuzilmaviy natijalar, balki aholining farovonligi va resurslardan samarali foydalanish bilan bog'lashga zamin yaratadi.

Prognozlarga ko'ra, suv xo'jaligi sohasida dasturiy budjetlashtirishni takomillashtirish jarayonida har bir budjet dasturida outcome va output ko'rsatkichlarini aniq farqlash, maqsadlar va indikatorlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ochiq va tekshiriladigan shaklda belgilash boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi. Baholash natijalariga asoslangan holda resurslar taqsimotini qayta ko'rib chiqish mexanizmlarining mustahkamlanishi esa budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirib, suv xo'jaligi tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni amalga oshirish uchun quyidagilar taklif qilinadi:

Birinchidan, har bir budjet dasturida cheklangan miqdorda aniq yakuniy natija (outcome) belgilab, barcha tadbirlarni aynan shu natijalarga erishishga yo'naltirish zarur. Bu dastur samaradorligini bajarilgan ishlar hajmi orqali emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Ikkinchidan, budjet dasturlarida "vazifa–tadbir–natija" mantiqiy bog'liqligini mustahkamlash lozim. Har bir vazifaning qaysi tadbirlar orqali qanday bevosita natijalarga va oxir-oqibat qaysi yakuniy natijalarga olib kelishi ochiq ko'rsatilishi monitoring va baholash jarayonlarini soddalashtiradi.

Uchinchidan, infratuzilmaviy ishlar hajmini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar faqat bevosita natija (output) darajasida qo'llanilishi, yakuniy natijalar esa suv ta'minoti ishonchiligi, qamrovi, suvdan foydalanish samaradorligi va iqtisodiy mahsuldorlik kabi sifat va ta'sir ko'rsatkichlari orqali ifodalanishi lozim. Bu maqsadlar bilan indikatorlar o'rtasidagi uzilishni bartaraf etadi.

To'rtinchidan, samaradorlik ko'rsatkichlarini budjet qarorlari bilan bevosita bog'lash maqsadga muvofiq. Asosiy infratuzilmaviy va investitsion yo'nalishlar bo'yicha "natija birligi qiymati"ni hisoblash va uni budjet dasturlarini taqqoslash uchun qo'llash xarajatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, suv xo'jaligi sohasi uchun cheklangan, biroq mazmunan muhim samaradorlik ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish zarur. Ushbu tizim texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik hamda institutsional ko'rsatkichlarni qamrab olib, budjet dasturlarini boshqarishni soddalashtirishi va natijadorlikni oshirishi kerak.

3 <https://lex.uz/uz/docs/-6728568>



Oltinchidan, natijadorlik bo'yicha hisobdorlikni kuchaytirish maqsadida yillik budget dasturlari natijadorlik hisobotlarini e'lon qilish hamda asosiy yakuniy ko'rsatkichlar bo'yicha verifikatsiya mexanizmlarini joriy etish zarur.

Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish suv xo'jaligi sohasida dasturiy budgetlashtirishning formal mexanizmdan natijaga yo'naltirilgan samarali boshqaruv vositasiga aylanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Joseph G., Hoo Y. R., Wang Q., Bahuguna A., & Andres L. (2024). Funding a Water-Secure Future: An Assessment of Global Public Spending. Washington, DC: World Bank. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099050624154572979/pdf/P172944-00adb1e8-ccd1-4542-88ab-d289e7f2f00b.pdf>
2. Alegre H., Baptista J. M., Cabrera E. Jr., et al. (2016). Performance Indicators for Water Supply Services. London: IWA Publishing. https://www.researchgate.net/publication/221936068_Performance_Indicators_for_Water_Supply_Services
3. World Bank. International Benchmarking Network for Water and Sanitation Service. <https://newibnet.org/about-us-0>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/4892953>
5. France. Projet annuel de performances (Annexe au projet de loi de finances pour 2025). Paris: Gouvernement Français. https://www.senat.fr/rap/l24-144-311-1/l24-144-311-1_mono.html
6. France. Programme 113 "Paysages, eau et biodiversité": Rapport Annuel de Performances 2023. Paris: Gouvernement Français. <https://www.budget.gouv.fr/documentation/file-download/22824>
7. Australian Government DCCEEW (Department of Climate Change, Energy, the Environment and Water). (2024). Portfolio Budget Statements 2024–25. Canberra: Commonwealth of Australia. <https://www.dcceew.gov.au/sites/default/files/documents/dcceew-2024-25-pbs.pdf>
8. Republic of South Africa National Treasury. (2024). Estimates of National Expenditure 2024: Vote 41 – Water and Sanitation. Pretoria: National Treasury. <https://www.treasury.gov.za/documents/National%20Budget/2024/ene/Vote%2041%20Water%20and%20Sanitation.pdf>
9. Қозоғистон Сув ресурслари ва ирригация вазирлиги бюджет хужжатлари <https://www.gov.kz/memleket/entities/water/activities/directions?lang=ru>
10. Қозоғистон Сув дастурининг амалга оширилиши. gov.kzgov.kz
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.01.2024 yildagi "O'zbekiston Respublikasida dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etishda budget mablag'larini taqsimlovchilarning budget dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 4-son qarori // <https://lex.uz/docs/6728568>
12. Пулатов, Д. Вазирлик ва идораларни бюджет дастурларини таснифлаш ҳамда бюджет дастурлари ижроси бўйича электрон ҳисобот тизими. МОЛИЯЧИ маълумотномаси бюллетени, 2025 йил, 11-сон (№167).
13. Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna. Rasmiy rivojlanish yordami (official development assistance, oda) orqali O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) tizimini takomillashtirish. MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT 2025-yil, dekabr. № 12-son. 24-bet. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=9026156213652527646&btnI=1&hl=ru>
14. Pulatov, Dilshod. ISSUES IN DEVELOPMENT OF STATE FINANCIAL CONTROL IN UZBEKISTAN. Perspectives of Innovations, Economics & Business, Volume 2, 2009 www.pieb.cz. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=12705978966325535035&btnI=1&hl=ru>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
